

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTE



IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI

FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300000 -	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
	400000 -	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	310000 -	Ijtimoiy va huq atvorga mansub fanlar
	410000 -	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60310100 -	Iqtisodiyot (turnoqlar va sohalar bo'yicha)
	60411200 -	Menegment (turnoqlar va sohalar bo'yicha)

Qarshi - 2022 yil

Fan/modul kodi HISET2	O'quv yili 2022-2023	Semestr I	ECTS - Kreditlar 2
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Haftadagi dars soatlari 2
	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1. IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI			
1.		30	30
2.		60	
I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga Antik davrdan XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan iqtisodiy fikrning rivojlanishi haqida umumiy ma'lumot berish. Iqtisodchilar har doim duch kelgan va hal qilishga uringan muammolar mohiyatiga alohida e'tibor berishlari kerak. Muammolarni hal qilishda iqtisodchilarning faoliyatidagi uzluksizlik va o'zgarishlarni tushunish iqtisodiyotni fan sifatida shakllanish evolyusiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Fanni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng talabalar iqtisodiy ta'limotlar tarixidagi asosiy maktablar va tendensiyalarni ajrata olishlari va 19-20-asrlar iqtisodiy yondashuvlarning analitik asoslarini tushunishlari kerak. Fanning vazifasi - talabalarga iqtisodiy fikrning tarixiy evolyusiyasi to'g'risida tushuncha berish. Talabalarni qisman iqtisodiy tarixning ba'zi epizodlari bilan tanishtirish. Ularga ikki ming yildan ortiq davrda iqtisodiy tafakkur evolyusiyasi to'g'risida keng tushunchalar berish. Talabalarda iqtisodiy tafakkurning turli oqimlarini va ularning iqtisodiy ta'limotlar tarixiga ta'sir ko'rsatgan ba'zi shaxslar bilan tanishtirish. Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: - iqtisodiy atamalar, konsepsiya va nazariyalarini bilish va tushunishni o'rgatish; - iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalana olishni o'rgatish; - iqtisodiy tahlil qila olishni o'rgatish; - iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq tasvirlashni o'rgatish; - iqtisodiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy konsepsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)			

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

“Iqtisodiy ta'limotlar tarixi” fanining predmeti va o'rganish usuli

Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bulishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Ilmiy davrlash prinsiplari (tamoyillari), boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, xalq xo'jaligi tarixi, ekonomiks) bilan chambarchas bog'liqligi. Zamonaviy iqtisodiy ta'limotlarning asosiy maqsadi, zamonaviy iqtisodiy nazariya bo'limlari, noortodoks iqtisodchilarning muammolari, turli hil fikrlarni namoyish etish muammosi, metodologik muammolar.

Klassik davrgacha bo'lgan qadimgi iqtisodiy ta'limotlar

Qadimgi Sharq davrlari iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, xususiyatlari. Qadimgi Bobil davlatining g'oyalari. Qadimgi Misr. Misrning iqtisodiy g'oyalari. Hammurapi qonunlari. Qadimgi Xindistonning iqtisodiy g'oyalari. Manu qonunlari. «Arxashastra» traktati. Qadimgi Xitoy iqtisodiy fikrlari. Konfutsiychilar va legistlarning ta'limoti. Guan-tsi traktatlari. Ilk sotsial (ijtimoiy) utopiyalar. Zardushizm (Ovesta)dagi iqtisodiy g'oyalar. Qadimgi Gretsiya ilk kuldorlik jamiyatining iqtisodiy qarashlari. Grek polisi (shaxri) iqtisodiy g'oyalarning rivoji (meloddan avvalgi V asr). Ksenofont. Afloturn (Platon)ning iqtisodiy loyihalari. Aristotelning iqtisodiy qarashlari. Iqtisodiy jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirish yulidagi ilk urinishlar. Qadimgi Rimning iqtisodiy konsepsiyalari. Katon, Varron, Kolumellaning agronomik asarlarida Rim latifundiyalari muammolari. Aka-uka Grakxlar agrar islohotining iqtisodiy asoslari. Diniy falsafa (sxolastika). Avliyo Tomas Akvinskiy.

O'rta asr iqtisodiy qarashlari

Marg'inoniyning «Hidoya» asari, undagi iqtisodiy fikrlar, iqtisodiy qonunchilik, zakot, chorva mollari, qo'y-qo'zi, qoramollardan olinadigan zakot miqdori, Forobiy asarlarida “ehtiyoj”, mehnat, mehnat taqsimoti, inson omili masalalarining yoritilishi. Beruniyning asarlarida kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlari. Ibn Sino asarlaridagi iqtisodiy qarashlar. Fozil davlat to'g'risidagi g'oya. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asaridagi iqtisodiy fikrlar. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asari, unda raiyatning hukmdorga talablari: mulk daxlsizligi, pulning qadr-qiyamati, savdo yo'llarining bexatarligi to'g'risidagi fikrlar. Merkantilizm va fiziokratizm g'oyalari. XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. “Temur tuzuklari”, undagi iqtisodiy g'oyalar. Ulug'bekning iqtisodiy g'oyalari va iqtisodiy siyosat. Moliya-pul islohotining axamiyati. «Fulusiya pullari». Alisher Navoiyning

«Maxbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Boburning «Boburnoma», «Mubayyin» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Xumoyun va Akbarshox davridagi ijtimoiy-iqtisodiy fikrlar va siyosat, yangi yil xisobi, yagona uzunlik va og'irlik o'lchovlarining kiritilishi. Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning xozirgi davr uchun ahamiyati.

Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Har bir shaxs o'zi uchun iqtisodchidir. Qudrat va boylik. Savdo balansi. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkreten (Fransiya), David Hyumaning iqtisodiy qarashlari. Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi, Fransiya-kolbertizmi. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi. Angliyadagi shart-sharoit. Boylikning asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Uilyam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati. Petti uslubi (metodi), xususiyatlari qiymatning talqini. Iste'mol va almashuv qiymatiga munosabat, muomaladagi pul miqdorini aniqlash. Ish haqi, yer rentasi, yer bahosi va foiz (protsentning) tahlili. Per Buqilberning qiymat talqini, iste'mol va ayirboshlash qiymati, pulga munosabat. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi (Fransiya). Uning umumiy xarakteristikasi. Fransua Kene asarida merkantilizmni tanqid qilinishi. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. «Tabiiy tartib» konsepsiyasi. «Sof mahsulot» nazariyasi. «Unumli va unumsiz mehnat» talqini. Kapital, sinflar, oddiy takror ishlab chiqarish haqidagi g'oyalar. Kenening bosh asari «Iqtisodiy jadval»da ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil etilishi va uning ahamiyati. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining ahamiyati va tarixiy taqdiri.

Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi

Adam Smit dunyoqarashining kengligi. Smitning bozorlar va siyosat haqidagi xulosalari tahlili. Adam Smitning xalqaro savdo, qiymat nazariyasi, taqsimlash nazariyasi. A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchisi sifatida. A.Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot» nomli asari, feodalizmga munosabat. Merkantilizm tanqidi va fritrederlik (erkin savdo)ning asoslab berilishi. A.Smit va hozirgi zamon. Bozor iqtisodiyoti to'g'risidagi

ta'limotlar. D.Rikardo-sanoatning fabrika davri mafkurachisi. Uning «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» asaridagi asosiy iqtisodiy g'oyalar. Smitning xalqlar boyligi va Rikardoning tamoyillari o'rnatidagi bog'liqlik. Rikardo: uslub, siyosat, predmet. Rikardo modeli, davriy muammolar: don qonuni, tahliliy qurol va javobgarlik. Rikardoning er rentasi nazariyasi. Kamayib boruvchi daromad. Mahsulot hosil qilishda renta hisssasi. Narx hosil qilishda renta hisssasi. Renta tamoyilining umumiy tahlili. Rikardoning qiymat nazariyasi. Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasi. Tovarlar ishlab chiqarishda raqobatlashuv. Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq qiyinchilik. Mehnatga haq to'lashda rikardo yondashuvi. Rikardoning taqsimot nazariyasi. Daromadlarning vaqt oralig'ida taqsimlanishi. Qiyosiy ustunlik. Kapitalistik iqtisodiyotda barqarorlik va o'sish. Merkantelistlarning yalpi talab to'g'risidagi qarashlari. Smitning yalpi talab to'g'risidagi qarashlari. Henri Thornton muhokama qolipi va rikardoning monetar nazariyasi.

Klassik iqtisodiy maktabning yakunlanishi

Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristikasi. Maltusning aholishunoslik.T. Maltus. Uning «Nufus nazariyasi», qiymat nazariyasi va foyda masalalarining klassik maktabga xos ziddiyatlaridan foydalanishi. T.Maltusning realizatsiya nazariyasi. Maltusning iste'mol nazariyasi. J.S.Mill: uning qarashlari tahlili. J.S.Millning iqtisodiyotga yondashuvi. J.S.Mill eklektizmi. Jeremy Benzanning Mill ta'limotiga ta'siri. Aralashmaslik, aralashish yoki sotsionalizm. Turli xil stasionar holat .Mill ijtimoiy falsafasi. Mill iqtisodiyoti nazariyaning o'rni. Mill konseptual tahlili. Qiymat nazariyasi. Xalqaro savdo nazariyasi. Mill monetar nazariyasi va ortiqcha taklif: sey qonunini qayta nazar. Valyuta va bank maktabi. Ish haqi fondi: Mill nazariyasidan qaytish. J.B.Sey. Uning metodologiyasi, qiymatning tahlili, ishlab chiqarishning uch omili (kapital, yer, mehnat) va kapitalning qiymati unumdorligi haqidagi uylar. «Sey qonuni», umumiy ortiqcha ishlab chiqarish ehtimolining rad etilishi. F.List va uning «Siyosiy iqtisod» sistemasi. Germaniyadagi tarixiy maktabning asoschilari Sismondi, Prudon va Rodbertus. Mayda ishlab chiqarish nazariyalari mohiyati. XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, mayda ishlab chiqarish imkoniyatlari, yollanna mehnat kengayishi nazariyalarning rivojlanishi. Karl Marks va uning klassik iqtisodiyot haqidagi tanqidiy fikrlari. Marks uslubiyoti, sinf va tovarlar. Marksning qiymatning mexnat nazariyasi. Ortiqcha qiymat va eksplutatsiya. Marksning kapitalizm taxlili. Ishsizlik armiyasiga qarama qarshilik. Foydaning tushish darajasi. Biznes inqirozning kelib chiqishi. Davriy takrorlanadigan o'zgarishlar, nomutanosib inqiroz.